



Nargiza ABDULLAYEVA,
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi,
E-mail:nargiza3967757@gmail.com

NamDChTI professori, f.f.d. N.Dosbayeva taqrizi asosida.

LEXICAL-SEMANTIC PROBLEMS OF ACHIEVING AN ALTERNATIVE IN THE TRANSLATION OF GENDER LEXICON

Annotation

In this article, the lexical-semantic problems in the representation of gender lexicon in language, its use in works of art and their translation in an alternative form are highlighted. Alternative translations of gender lexical units have been analyzed with practical examples.

Key words: Gender component lexicon, lexical-semantic field, generalization, antonomasia, gender units.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ДОСТИЖЕНИЯ АЛЬТЕРНАТИВНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ ГЕНДЕРНОЙ ЛЕКСИКИ

Аннотация

В данной статье рассмотрены лексико-семантические проблемы языкового происхождения гендерной лексики, ее использования в художественных произведениях и их альтернативной формы переводчиками. На практических примерах были проанализированы соответствующие переводные соответствия гендерных лексических единиц.

Ключевые слова: Лексика с гендерным компонентом, лексико-семантическое поле, обобщенность, антономазия, гидрологические единицы.

GENDER LEKSİKASI TARJIMASIDA MUQOBILLIKKA ERISHISHNING LEKSİK-SEMANTIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada gender leksikasining tilda yuzagi chiqishi, badiiy asarlarda qo'llanilishi hamda tarjimonlar tomonidan ularni muqobil shaklini topib qayta yaratilishidagi leksik-semantik muammolar ko'rib chiqilgan. Gender leksik birliklarining mos tarjima muvofiqliklari amaliy misollar bilan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Gender komponentli leksika, leksik-semantik maydon, generalizatsiya, antonomaziya, gendrologik birliklar.

Kirish. Tilda so'zlar doimo bir- birini taqozo etadi va sintagmatik tarzda ya'ni so'z birikmasi yoki gap shaklida, paradigmatic holatda esa ma'lum leksik-semantik assotsiatsiyalar shaklida qo'shilib ketadi. Tilning leksik-semantik sohasining muhim xususiyati so'zlarni semantik o'xshashligi bo'yicha guruflashtirishdir. Bu tamoyil tilning leksik-semantik tuzilishini ta'riflash asosida so'zlar o'rtasidagi munosabatni aniq ifodalaydi[1]. Bundan tashqarsi tilshunoslikda leksik-semantik maydon tushunchasi ham mavjud bo'lib, semantik maydon nazariyasini asosida sohalararo alohida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, asosan, XX asrning 70-80 yillardan boshlandi. Gender tadqiqotlari esa leksik-semantik maydon bilan uzviy ravishda asosan feministlik harakatlar ta'sirida va ular bilan yaqin hamkorlikda shakllangan fanlararo o'rganish sohasi hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek tilshunosligida ham gender masalasiga qiziqishlar natijasida qator tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi.

Gender leksikasining tilda yuzagi chiqishi, mualliflar tomonidan badiiy asarlarda qo'llanilishi hamda tarjimonlar tomonidan ularni muqobil shaklini topib qayta yaratilishida ham, o'z aksini topadi. Tarjima nazariyasida muvofiqlik uch turga bo'linadi va ular vazifaviy muvofiqlik, mazmuniy muvofiqlik hamda strukturaviy muvofiqliklardir[2]. Aynan shu muvofiqlikning mazmuniy turiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u tarjima va asliyatning mazmun va ma'no jihatdan to'liq mos kelishimi bildiradi. Tarjimada muvofiq matnlarning yaratilishi ikki matndagi o'zaro aloqada bo'lgan til muvofiqligini keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gender leksikasini badiiy asar tarjimasida muqobillik masalalari borasida rus tarjimashunoslida N.Komissarov, L.S.Baxrudarov, A.V.Fyodorov, Yu.S.Kulikova, E.Xabibulina, A.V. Vandalisheva, I.V.Zikova kabi olimlar gender leksikasini tarjimada aks etishi haqida teran fikrlar bildirganlar. O'zbek tarjimashunsoligida G'.Salomov J. Bo'ronov, Z. Sodiqov, M.Abduraxmanov,

N.Nasrullayeva, Sh.Gulyamova, G. Ergasheva, M.To'xtasinov, D.Quronov, Sh.Ulug'ova, Sh.Sobirova, M.Bahromova, N.Umarova va boshqalarning bir qator ilmiy izlanishlari, risololari gender leksikasini badiiy asar tarjimasida qayta yaratish masalalarini keng o'rganilishi va tadqiqiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar natijalari quydagi metodlardan foydalaniib, asosiy tahlillar olib borildi. Ta'riflash va analitik metod bu o'zbek va ingliz tillarini batatsil va tizimli o'rganishda tilshunoslarining nazariy asarlari o'rganish; o'rganilayotgan mavzularidan til (nutq) materialini doimiy ravishda tanlash metodi (ingliz yozuvchilarining asarlari va ularning o'zbek tiliga tarjimalari talqinida); qiyosiy-solishtirma metod (manba tili matnlari va tarjima matnlarining farqli jihatlari); gender komponentli birliklarni semantik tahlil qilish metodi va tarjimada ularning o'zgarish xususiyatlari.

Tahlil va natijalar. Har qanday tarjimada bir-birining o'rnini bosuvchi aynan bir xil yoki o'xshash juft birliklar mavjud. Til birliklarining muloqot qiymati uning semantikasi ya'ni ma'no mohiyatiga bog'liq. Shuning uchun tarjima muvofiqligi (teng ma'nolilik) tegishli til tizimida birliklarning o'zaro o'xshamagan joylarni egallashi bilan yaratiladi[3]. Fikrlarimizni amaliy tahlili sifatida ingliz adabiyoti feminist yozuvchilarini Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim" hamda Sharlotte Brontening "Jeyn Eyr" romanlaridagi gender leksikasini tarjimonlar Rohila Axtamova va Fozil Tilovatovlar tomonidan berilgan o'zbek tilidagi talqinlari misolida qiyoslab, tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Oila a'zolari hamda qarindoshchilik munosabatlarini bildiruvchi gender leksikasi bilan badiiy asarlarda inson jinsini aniqlash.

Jamiyatning eng kichik yecheykasi hisoblangan oila va uning a'zolari hamma vaqt ikki jins vakillaridan tashkil topgan bo'lib, ularning oiladagi maqomlariga ko'ra har bir tilda o'ziga xos tarzda lisoniy birliklar mavjud. O'zbek tili lingvistikasida

“oila shajarası” iborasi bilan ingliz tilida esa “family tree” turg‘un birikmasi ostida jamlangan oila a’zolari hamda qarindoshchilik munosabatlarni bildiruvchi, genderlikni ifodalovchi leksika amal qiladi. Bu turkum leksemalarning xususiyatlarini o’rganish bilan bog‘liq muammolar, biringchi navbatda, fanlararo ahamiyatga ega va ular u yoki bu tarzda tilshunoslik, etnografiya, sotsiologiya kabi fan sohalarini qamrab oladi[4]. Bu guruhga tegishli gender komponentli leksikani tarjima qilishda tarjimon ko’p hollarda gender leksemalaring to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlaridan foydalanadi. Buning sababi ikki tilda, ya’ni o‘zbek va ingliz tillarida shu turkum leksemalarning aksariyatida bir-biriga mos keluvchi lug‘aviy so‘zlarning mayjudligidir. Albatta ba’zi bir farqlar bundan mustasno va bu kabi alohida holatlarda, ushbu leksik birlilik guruhini tarjima qilishda biz generalizatsiya (umumlashtirish) va qisman almashtirish hodisasini kuzatamiz. Fikrlarimizni Charlotte Brontening “Jeyn Eyr” asaridan olingan quyidagi misollar tahlili bilan davom ettiramiz. “Meantime, Mr. Rochester had again summoned the ladies round him, and was selecting certain of their number to be of his party. “Miss Ingram is mine, of course,” said he: afterwards he named the two Misses Eshton, and Mrs. Dent.”[5]. Tarjimon Fozil Tilovatov talqinida ushbu parcha o‘zbek tilida quyidagicha berilgan. “Shu orada mister Rochester yana xonimlarni xuzuriga chorlab, ularndan ba’zilarini o‘z guruhiga tanlab oldi. – Miss Ingram, albatta, mening yonimda bo‘ladi. – Shundan keyin u opa-singil Eshtonlar va missis Dentni tanladi.”[6] Ko‘rinib turganidek, asliyatda shu birligina kichik parchada genderlikni ifodalovchi o‘nlab leksik birliklar mavjud va ular tarjimon mahorati bilan turli usullarda o‘zbek kitobxonlariga yetkazishga harakat qilingan. Shulardan biz fikr yuritayotgan oila a’zolari va qarindoshlik munosabatlarni bildiruvchi leksemalarni asliyatda uchratmadik, lekin “two Misses Eshton” iborasisini tarjimon “opa-singil Eshtonlar” tarzida tarjima qilish bilan, ma’no jihatdan bir oilaning ikki qiziga murojaat qiladi. Tarjimon so‘zma-so‘z tarjima qilishdan voz kechgan holda, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qisman almashtirish usuliga yuzlanadi va buning natijasida yuqori muvofiqlikka erishgan deyish mumkin xuddi shu asarning oilaviy meros masalalarini tasvirlovchi qismiga nazar tashlaymiz. “Jane, you will wonder at us and our mysteries,’ she said, ‘and think us hard-hearted beings not to be more moved at the death of so near a relation as an uncle; but we have never seen him or known him. He was my mother’s brother. My father and he quarrelled long ago.” “Jeyn, bularning baridan taajjubda bo‘lsangiz kerak, judayam sirli so‘zlashdik,- dedi u- Ehtimol, bizni qalbi qo‘tir, mehrsiz deb o‘ylagandirsiz. Yaqin bir qarindoshimiz olamdan o‘tsa-yu, bu xabarni biz shu alpozda qarshilasak, buni yana qanday izohlash mumkin, lekin uni biz umuman bilmaymiz. U onamizning akasi bo‘ladi. Otam uzoq vaqt u bilan chaplashib yurgan.” Har ikki parchada, asliyatda ham tarjimada ham ifodalananayotgan gender komponentli leksemalar, jumladan ingliz tilidagi “mother’s brother, father” o‘zbek tiliga o‘z lug‘aviy ma’nosini bilan ya’ni “onamizning akasi, otam” tarzida tarjima qilingan. Faqat “uncle” leksemasi tarjimada tushurib qoldirilgan va buning sababi sifatida asliyatda izoh sifatida berilgan “He was my mother’s brother” gapining tarjimasi yetarli deb o‘ylaymiz, chunki semantik jihatdan ingliz tilidagi “uncle” leksemasi o‘zbek tilida “tog‘a”(onaning akasi yoki ukasi) hamda “amaki”(otaning akasi yoki ukasi) leksemalariga ekvivalent hisoblanadi. Tarjimonning bu o‘rindagi yutug‘i takroriylikdan voz kechgan holda umumilashtirishni ma’qul ko‘rganligini e’tirof etamiz, bu esa uni asar tarjimasidagi gender leksikasi muvofiqligiga erishishda to‘g‘ri yo‘ldan borganligini ko‘rsatadi.

Kasbiy faoliyat turlarining gender leksikasiga bog‘liqlik jihatlari.

Kasb-hunarni bildiruvchi jinsga xos leksemalar ham tadqiqot uchun maxsus qatlama hisoblanadi. Kasbiy faoliyat turlarini ifodalovchi lisoniy birliklarni ikki turga bo‘lish mumkin. Ular har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati, urf-odatlari natijasida shakllangan leksemalar hamda insonlarning kasbiy vazifalari orqali paydo bo‘lgan leksemalardir. Ijtimoiy hayotda asosan erkaklar kasbiy faoliyat bilan ko‘proq shug‘ullanganliklari sababli lingvistikada kasb-hunar nomlarining ko‘pchiligidagi erkaklik konsepti turg‘unlashuviga olib kelgan, albatta ayollar uchun xos bo‘lgan kasblarni bu o‘rinda mustasno qilib o‘tish lozim. Masalan, o‘zbek tilida dehqon, savdogar, tadbirkor kabi so‘zlar bilan ayol

kishini nomlash odatda ushbu so‘zlarini ayol so‘zi bilan bog‘lashni taqazo qiladi: tadbirkor ayol, savdogar ayol. Bundan tashqari, jins kategoriyasi mavjud bo‘lgan tillarda ham ayollik jinsini bildiruvchi kasbga oid so‘zlar odatda erkaklik jinsini anglatuvchi so‘zdan hosil qilinadi. Ushbu holat uchun rus tilidagi учитель-учителница, ingliz tilidagi steward-stewardess leksemalarini misol tariqasida olishimiz mumkin[7]. O.Xamzayevning ta’kidlashicha, har bir tilda gender farqlarni yaqqol namoyon qiluvchi kasb-hunar nomlari o‘z ma’no xususiyatiga ko‘ra shaxs nomlari semantik maydoniga mansub bo‘lib, ular ham o‘z o‘rnida mavzuviy guruhlarda birlashadilar. Jumladan, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, savdo-sotiq, hunarmadchilik, dehqonchilik va bog‘dorchilik, sport hamda ijtimoiy sohalar bilan bog‘liq kasb-hunar nomlarni alohida guruhlarda turkumlashimiz mumkin[8]. Bu kabi kasblar nomlarni ko‘rsatuvchi umumiyligi gender komponentli leksikani tarjima qilishda, aksariyat hollarda, biz yuqorida ta’kidlab o‘tilgan insonlarning kasbiy vazifalari orqali paydo bo‘lgan leksemalarda, asliyat va tarjima orasidagi ekvivalentikrning to‘liq mos kelishini kuzatamiz va millatning madaniyatida va urf-odatlari natijasida paydo bo‘lgan leksemalarda tavsiflovchi tarjima yoki qisman almashtirish kabi tarjima o‘zgarishlariga duch kelamiz. Misollarga yuzlanadigan bo‘lsak, “Wade could have nourishing food to fill out his thin cheeks and warm clothes and a governess and afterward go to the university ... and not grow up barefooted and ignorant like a Cracker”[9]. “Do‘mboqqina bo‘lishi uchun Ueydni ham yaxshilab boqishi va kiyintirishi, unga muallim yollashi, keyin esa qashshoq singari yalandoyq va savodsiz bo‘lib o‘smasligi uchun universitetga o‘qishga jo‘natishi...mumkin bo‘ladi.” [10] asliyatda kasbga oid leksik birlilik sifatida “governess” so‘zi (rus tilida -губернантка, воспитательница tarjimasida keladi) [11] qo‘llanilgan va genderlik nuqtai nazardan u ayol jinsini ifodalaydi, chunki tarkibida “ess” suffaksi mavjud bo‘lib, ma’no jihatdan ingliz madaniyatida uyga yollanib bilim beruvchi ayolni tushuniladi. Tarjimon Roxila Axtamova yaxshi reseptor sifatida, ushbu gender leksikasini “muallim yollash” iborasi orqali ochib bergen va qisman muqobillikka ega bo‘lgan so‘z bilan yondosh tavsiflovchi leksemani birkirish natijasida to‘liq muvofiqlikka erishgan deyish mumkin. Fozil Tilovatovning kasbiy faoliyatga oid genderlikni ko‘rsatuvchi lisoniy birliklar tarjimasiga yondashuvini quyidagi misollar bilan izohlaymiz. “I was glad of it: I never liked long walks, especially on chilly afternoons: dreadful to me was the coming home in the raw twilight, with nipped fingers and toes, and a heart saddened by the chidings of Bessie, the nurse, and humbled by the consciousness of my physical inferiority to Eliza, John, and Georgiana Reed.” “Menga qolsa, xuddi ko‘nglimdagisi bo‘ldi: tabiatian havoning sovg‘ida, boz ustiga kechki payt uzoq sayr qilishni xush ko‘rmasdim. To‘g‘risi, qahratonda qo‘l oyoqlaring muzlab, bor-yo‘qligini sezmay qolgan chog‘ing enaga Bessining yurakni uvishadiragan ming‘irlashlarini eshitish, Eliza, Jon va Jorjiana Ridlarning haqoratomuz nigohlariga dosh berish uchun sayrdan uyga qaytishdan azobliroq narsa yo‘q edi.” Asliyatda berilgan kasbiylikni bildiruvchi leksema “nurse” tarjimon tomonidan “enaga” tarzida o‘girilgan va ushbu so‘zni ingliz tilida quyidagi ta’riflari mavjud: a person whose job is to take care of sick or injured people, usually in a hospital; a woman or girl whose job was to take care of babies or small children in the children’s own home[12]. Ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, tarjimon ushbu gender leksemasining ikkinchi ma’nosini ifoda etuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos o‘zbekcha muqobilini topa olgan va samarali natijaga erishgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadi, ushbu guruhdagi gendrologik birliklar tarjimada o‘z ekvivalentligiga ega bo‘ladi yoki jinsni belgilash uchun yondosh leksika yordanga keladi.

Antonomaziyalar bilan genderlikni aks ettirish.

Jamiyatning rivojlanishi va undagi erkak va ayol rollerining o‘zgarishi boshqa fanlar qatorida lingvistikada ham o‘z aksini topib boradi va bu badiiy asarlarda genderlikni namoyon bo‘lishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadi, tilning turli davrlarida gendrologik tushunchalardan foydalilanigan va ular doimiy rivojlanishda bo‘lganlar.[13] Buning oqibatida tarixiy shaxslarning nomlari, qahramonlar ismlari, muqaddas avliyolar va ins-jinslarning atamatlari hozirgi kunda ham badiiy adabiyotlarda gender

leksikasining bir bo'lagi sifatida qo'llanilib kelinadi. Tilshunoslikda antonomaziya hodisasi aynan yuqoridagi fikrlarimizga mutanosib holda hammaga ma'lum va mashhur bo'lgan badiiy asar qahramonlariga, tarixiy voqe va afsonalarga ishora qilishdir va bu tushuncha o'zbek adabiyotshunosligida "talmeh" ba'zan "talmih" shakllarida ham uchraydi.[14] Antonomaziyalar badiiy adabiyotda ijodkorming subjektiv munosabatini ifodalab, matnni shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ular badiiy asarlarda metaforik ma'noda qo'llanilib, badiiy san'at va uslubiy figuralar yaratishga asos bo'ladi.[15] Masalan o'zbek adabiyotida "To'maris, Barchinoy" kabi xalq qahramonlari ayol jinsimi ko'rsatsa, "Alpomish, Go'ro'g'li" nomlari erkaklarni yodga soladi. Bundan tashqari turli xalqlarning diniy e'tiqodini ko'rsatuvchi muqaddas kitoblarda yozilgan avliyo-anbiyolarning ismlari (ilk Odam Ato bilan Momo Havvo nomlari ila bosqlangan), ins-jinslarning (farishta, iblis kabilar) nomlari tez-tez badiiy asarlarda uchrab turadiki, bularning ma'nolari ortida albatta erkak va ayol jins vakillari tushuniladi. Murakkab tarjima jarayonida bu kabi gender ifodalovchilarini tarjimonlar asosan lug'aviy ma'nolariga yuzlangan holda tarjima qiladilar, chunki diniy qarashlar ortida doimo millat ruhi, e'tiqodi, qadr-qimmati yotadi va har qaysi tarjimon bu masalada ehtiyyotkor bo'lishga intiladi. Fikrlarimizni misollarda ko'rib chiqamiz. "Wicked and cruel boy! I said. 'You are like a murderer-you are like a slave-driver-you are like the Roman emperors!' I had read Goldsmith's History of Rome, and had formed my opinion of Nero, Caligula, &c. Also I had drawn parallels in silence, which I never thought thus to have declared aloud." "-Ha, yashshamagur, yovuz qonxo'r!- qichqirdim men. -Sen xuddiki qashqirsan,

qullarning nazoratchisiday shafqatsizsan. Sen Rim imperatori Kaligulaga o'xshagan yirtqichsan! Men Goldsmitning "Rim tarixi" kitobini o'qigandim. Undan, Neron, Kaligula singari turanlar haqida muayyan bir tasavvurga ega edim.Ularni anchadan buyon Jon Rid bilan qiyoslab ham yurardim, ammo uni baralla, yana uning o'ziga aytaman deb o'ylamagandim." Ushbu parchada Charlotte Bronte tonomidan tilga olingan "Goldsmith, Nero, Caligula" tarixiy shaxslar nomlari bizga genderlikdan xabar beradi va kontekst orqali ularning biri yozuvchi yana boshqalar esa imperator bo'lganliklari va ular asarda erkak jins vakillari sifatida namoyon bo'lishlarini anglab olishimiz tayin. Lekin tarjimon Fozil Tilovatov talqinida bu kabi shaxs nomlari bilan ularning vazifaviy yondosh leksemalari "Rim imperatori Kaligula, Goldsmitning kitobi, Nero, Kaligula singari turanlar" tarzida berilgan, bundan tashqari izoh sifatida "Oliver Goldsmit(1730-1774) "Rim tarixi" asarida quadratl rim imperiyasining taskil topishidan G'arbiy Rim saltanatining qulashigacha bo'lgan voqealarni bayon qilgan" jumlalari qoldirilgan. Ushbu turkuma kiruvchi gender leksikasini transformatsiyasida transliteratsiya hamda izohlash usullaridan foydalish ko'proq natija berishini mutarjimining tarjimasi orqali ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqorida sanab o'tilgan gender leksikasining leksik-semantik jihatdan tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda so'zlarning jinsi belgilari yordamchi leksemalar tonomidan ta'minlanadi yoki kontekst orqali anglashiladi. Ushbu guruh leksemalar tarjimasi muvofiqligiga erishishda transliteratsiya, konkretlashtirish, izohlash, generalizatsiya va sinonimlar bilan almashtirish kabi transformatsiya turlari qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR

1. Axmedova M. Zamonaviy tilshunoslikda semantic maydon tushunchasi va uning o'rganilishi//Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar , № 10. 2023.- B. 26
2. Sirojiddinov.Sh. Odilova.G. Badiiy tarjima asoslari.-Toshkent: Mumto`z so`z, 2011.-B.16
3. Раҳимов. Ф. Таржима назарияси ва амалиёти: дарслик мажмуа.- Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2016. – B.16
4. Хабибуллина. Э. Языковые трансформации при переводе татарской литературы на турецкий язык: кан. фил. наук.....автореф.- . Казань, 2016.-C.19
5. Bronte. Ch. Jane Eyre.- Free eBooks at Planet eBook.com. -P.277
6. Бронте.Ш. Жейн Эйр.-Таржимон Фозил Тиловатов.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.-Б. 291
7. Abdulimova. M. O'zbek tilining o'ziga xos genderga ehtiyoji//Magistrlar. Google scholar, 2023.-B 117
8. Xamzayev. O. O'zbek tilida kasb-hunarga oid leksikaning semantic tasnifi//Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. To'plam 20, 2023.-B 102
9. Mitchell.M. Gone with the wind. –USA: Warner books edition,1993.-P.470
10. Митчелл.М. Шамолларда колган хисларим: роман (II китоб)/-Тошкент:Pravo-press,2020.-Б. 78
11. Англо-русский словарь. Издательство "Советская Энциклопедия". Москва, 1967.- C.324
12. https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/nurse_1
13. Schmitova.M. Semantics of gender marked nominations of person in English//Journal of interdisciplinary research, 2020.- B 62-65
14. Saidov Yo. Antonomaziya va metaforalarning o'zaro munosabati// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. Volume 1 Issue 3, 2021.- B.472
15. Achilova R. O'zbek tilidagi antonomaziyalarning ma'nosi// International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages". Volume . Special issue 20, 2022.- B.524